THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

JADID ADABIYOTI VAKILLARINING MILLIY OZODLIK VA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI.

Xamdamova Manzura Jurabayevna

JIDUakademik litsey ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: Jadid, jadidlar, ozodlik, ma’rifatparvarlik, sho‘ro tuzimi, mafkura, iqtisodiy tazyiqlar, tarix.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasida o‘z harakati bilan yuksak ma’naviy barkamollikni yuzaga keltirgan jadid adabiyoti vakillarining milliy ozodlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi.

Har qanday adabiyotda yangicha ko‘rinish, tur yoki janrning paydo bo‘lishi qator obyektiv va subyektiv faktorlarga bevosita bog‘liq bo‘lib, bunda avvalo, ijtimoiy muhit, voqelik etakchi o‘rin tutadi1. Shu ma’noda Turkiston Rossiya tomonidan istilo qilinganidan keyin toshbosma paydo bo‘lishi, gazetalar chop etila boshlanishi, mahalliy aholini ruslashtirish niyatida chor hukumati tomonidan tashkil qilingan rus-tuzem maktablariga qarama-qarshi tarzda xususiy shaxslar tashabbusi bilan tashkil qilingan yangi usul (“usuli jadidiya” yoki “usuli savtiya”) maktablarining barpo bo‘lishi singari hodisalar, o‘z navbatida, xalqni ilm-fan nuridan bahramand qilish orqali o‘zligini tanitishga intilish harakati – ma’rifatparvarlikning gullab-yashnashiga sabab bo‘ldi

Jadid. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida vujudga kelgan madaniy-ma'rifiy harakatdir. Aslida jadid so‘zi (arabcha “jadid”-yangi) yangilanish ma’nosini anglatadi.

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

xalqni savodxon qilish;

ta'lim tizimini isloh qilish;

zamonaviy usullarni joriy etish;

1 O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki 1981: B-13

matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirish;

milliy ongni oshirish.

Ma’rifatparvarlik – jadidlar dunyoqarashining poydevori.

Jadidlar uchun "ma’rifat" so‘zi shunchaki o‘qish-yozishni o‘rganish emas edi. Bu so‘z ostida ular dunyoviy bilimlarni egallash, o‘z huquqini tanish va millatning qadr-qimmatini anglashni tushunardilar. Ular "Usuli jadid" (yangi usul) maktablarini ochdilar. Bu maktablarda diniy bilimlar bilan birga geografiya, matematika, tarix kabi fanlar ham o‘qitila boshlandi

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti adabiyotshunosligimizda “ma’rifatparvarlik adabiyoti” sifatida tasnif qilinadi2 [2]. Bu bejiz emas albatta, chunki shu davrga kelib, adabiyotda, san’atda, madaniyatda o‘z kuchini ko‘rsatgan, xalqni uyg‘onishga, ozodlik sari boshlagan jadidlar xalq hayotiga kirib keldi. Ma’lumki, o‘z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o‘lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan jadidlar harakati o‘lka xalqlari tarixida muhim ro‘l o‘ynagan. Jadidchilik Turkistondagi milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o‘lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma’rifatparvarlik g‘oyasi sifatida shakllandi.

XIX asrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan nom olgan. Jadid adabiyoti taraqqiyotiga ko‘plab ma’rifatparvar ijodkorlar katta hissa qo‘shgan. Ular o‘z asarlarida xalqni ilm olishga, millat ravnaqi uchun kurashishga chaqirganlar. XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o‘lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g‘oyasini ilgari surdilar.

Jadid adabiyoti vakillari quydagi asosiy g‘oyalarni ilgari surdilar:

2 O‘zbek adabiyoti tarixi 1980:B- 51

Milliy ozodlik – mustamlakachilikdan qutulish, milliy mustaqillikni orzu qilish.

Ma’rifatparvarlik – xalqni ilm-fan va ta’lim orqali uyg‘otish.

Yangi ta’lim – eski maktab tizimini isloh qilish, zamonaviy bilim berish.

Vatanparvarlik – millat va tilni asrash.

Jamiyatni yangilash – ayollar ta’limi, madaniyat va taraqqiyot g‘oyalari.3[Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo‘lib, dramalari va maqolalari orqali jaholatni tanqid qilgan hamda yoshlarni ilmli bo‘lishga undagan. Ulug‘ ma’rifatparvarning **“Teatr – bu ibratxonadir”** degan fikrini olaylik. Chindan ham teatr inson tafakkurini yuksaltirishda, xususan, yoshlarni ezgulikka chorlash, ularda Vatanni sevish, ota-ona, oila va do‘stlikni qadrlash, o‘z kasbiga fidoiylik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ya’ni u insonga hayotiy saboq beradi.

Abdulla Avloniy esa ta’lim va axloq masalalarini markazga qo‘yib, yosh avlod tarbiyasini millat kelajagi deb bilgan. Hozirgi kungacha Abdulla Avloniyning tarbiya xususidagi qarashlari bizga dasturul amal bo‘lib kelmomoqda, Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bugungi kunda ham o‘z qadrini yo‘qotmagan. Avloniy shunday yozadi: "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat masalasidir".

Abdurauf Fitrat milliy o‘zlikni anglash, jamiyatni isloh qilish va zamonaviy taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan. Fitaratning “ Munozara” Asari jadidchilik harakati haqida alohida qarashlar qayd etilgan “Munozara” (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarasi) asari bosildi. Bu asar jadidchilik harakati rivoji yo‘lidagi ilk nazariy asardir. Bu asarda tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turib qolgan din

3 O’zbekiston tarixi.(o’quv qo’llanma)T.2011:B- 28]

va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil qarashga ega bo‘lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi. Cho‘lpon esa she’riyati va nasriy asarlarida erkinlik, inson qadr-qimmati va milliy ozodlik ruhini kuylagan.

Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari har bir kitobxon uchun eng qadrli asarlardan hisoblanadi. Kitob javonimizga ko‘rk bo‘lib turgan bu asarlar xalqimizning yaqin o‘tmishi, urf-odatlari, an’analaridan so‘zlaydi. Ulardagi voqealar o‘quvchini ma’naviy yetuklikka undash barobarida tarixdan saboq olish va ona zaminga munosib farzand bo‘lib ulg‘ayishga da’vat etadi.

Jadidlar va xotin-qizlar ma’rifati. Jadidchilik harakatida xotin-qizlar ma’rifati va huquqlari millat taraqqiyotining asosi sifatida ko‘rilgan. Jadidlar "Ayol — millat tarbiyachisi" tamoyiliga tayanib, xotin-qizlarning savodxonligi jamiyatning madaniy va ijtimoiy yuksalishini belgilashini ta’kidlashgan. Jadid mutafakkirlari (ayniqsa, **Abdurauf Fitrat** va **Cho‘lpon**) ayollarning jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishi zarurligini asarlarida yoritishgan

Jadid matbuotining millat uyg‘onishidagi o‘rni. Jadid matbuoti XX asr boshlarida Turkiston xalqining milliy o‘zligini anglash, ma’rifat tarqatish va ozodlik g‘oyalarini shakllantirishda eng qudratli vosita bo‘lgan. Jadidlar matbuotni "millat ko‘zgusi" va "tilmochi" deb atab, u orqali jamiyatdagi illatlarni fosh qilishgan hamda taraqqiyot yo‘llarini ko‘rsatib berishgan. Jadid nashrlari ona tilini (turkiy/o‘zbek tili) rivojlantirish, uni begona so‘zlardan tozalash va milliy g‘ururni tiklash yo‘lida kurashgan. Shuningdek, jadid gazetalari turli qarashlar to‘qnashadigan ochiq minbar vazifasini o‘tagan. Bir nashrda chiqqan fikrga boshqasida munosabat bildirilgan, bu esa jamiyatda bahs va tahliliy fikrlashni shakllantirgan.

Milliy ozodlik g‘oyasi

Jadid adabiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri milliy ozodlik g‘oyasi edi. Jadidlar xalqni mustamlakachilik zulmidan qutulish uchun avvalo ma’naviy uyg‘onish zarur deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, ilmli va ongli jamiyatgina

erkinlikka erisha oladi. Shu sababli adabiyot orqali milliy birlik va vatanparvarlik tuyg‘ulari targ‘ib etilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadid adabiyoti o‘zbek milliy uyg‘onish davrining muhim bosqichi hisoblanadi. Jadid ijodkorlari milliy ozodlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, xalq ongining o‘sishiga katta hissa qo‘shdilar. Ularning asarlari bugungi kunda ham ilm-ma’rifat, vatanparvarlik va taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib etuvchi muhim ma’naviy meros sifatida qadrlanadi, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1981.

2. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 5-tom. – Toshkent: Fan, 1980.

3. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O‘zbekiston tarixi.(o‘quv qo‘llanma)T.2011

4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. 2-tab’i. – Toshkent, 1917.

5. Saidqulov. J. Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Teatr bu – ibratxonadir O`zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi jurnali. Toshkent. 09.03.2022

6. Behbudi M. "Padarkush" dramasi.Toshkent. 2024

7. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq".2-tab’i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent, Tip. Lit. «Par. Sots. revolyuts» 1917

8. Qodiriy A. "O‘tkan kunlar" romani. Toshkent. “Sharq” 2022

9. Cho‘lpon. "Buloqlar" she’riy to‘plami. Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti 1992

10. Fitrat. "Munozara".